



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,  
22-aprel, 2026-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....  | 10 |
| <a href="#">Abdiqayumova Malika</a>  |    |
| Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni .....  | 14 |
| <a href="#">Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi</a>  |    |
| Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish .....   | 18 |
| <a href="#">Atamirzayeva Ezoza</a>   |    |
| English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan .....  | 22 |
| <a href="#">Aminova Asilaxon Sobir qizi</a>  |    |
| Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....  | 25 |
| <a href="#">Уразова М. Б., Абатова У. Б.</a>   |    |
| Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi .....   | 30 |
| <a href="#">Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi</a>  |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....   | 33 |
| <a href="#">Gaipova Akjunis Qayratovna</a>   |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....  | 37 |
| <a href="#">Alimov Bekzod Nematovich</a>   |    |
| O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi .....   | 41 |
| <a href="#">Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</a>   |    |
| Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar .....   | 48 |
| <a href="#">Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</a>   |    |
| Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education .....  | 53 |
| <a href="#">Yusupova Mukhabbat Anatolyevna</a>   |    |
| Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....   | 58 |
| <a href="#">Erkinova Sevara Najmiddin qiz</a>  |    |
| Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study .....  | 61 |
| <a href="#">Gulsara Khakimova</a>  |    |
| Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....  | 63 |
| <a href="#">Hikmatova Jamila Fatox qizi</a>  |    |
| Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....  | 68 |
| <a href="#">I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna</a>   |    |
| Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi .....   | 73 |
| <a href="#">Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi</a>  |    |
| Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....   | 77 |
| <a href="#">Murodova Farangis G'anisherovna</a>  |    |
| Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi .....   | 81 |
| <a href="#">Ravshanova Xafiza Komilovna</a>  |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi ..... | 85 |
| <a href="#">Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna</a>  |    |
| Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish .....  | 89 |
| <a href="#">Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi</a>  |    |
| Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....   | 91 |
| <a href="#">Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi</a>  |    |



|   |     |
|---|-----|
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ..... | 96  |
| <a href="#">Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi</a>            |     |
| Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции .....                | 101 |
| <a href="#">Улугмурадова Шохсанам</a>   |     |

# IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYATNING BOLALARNING MOSLASHUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

**Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ijtimoiy pedagogik faoliyat ijtimoiy muhitni to'g'ri tashkil etish, bolalarni yangi sharoitga moslashtirish hamda ularning ijtimoiy tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan muhim pedagogik jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning moslashuv jarayoni, uning psixologik va pedagogik xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy pedagogning ushbu jarayondagi asosiy vazifalari yoritilgan. Oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri hamda pedagogik hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotlarimizga ko'ra, ijtimoiy-pedagogik faoliyat bolalarda muloqot ko'nikmalari, emosional barqarorlik, ijtimoiy faollik va jamoaga moslashuv qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida o'rganish ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy muhit, kreativlik, kompetensiya, shaxslararo munosabatlar, sotsiologiya, etnografiya, antikonformizm, originallikka intilish, intuitsiya, maktabgacha ta'lim, moslashuv, ijtimoiylashuv, pedagogik faoliyat, bolalar rivojlanishi.

**Abstract:** This article analyzes the role of socio-pedagogical activity in the preschool education system in the formation of children's adaptive skills from a scientific, theoretical and practical point of view. Social pedagogical activity is considered as an important pedagogical process aimed at the correct organization of the social environment, adaptation of children to new conditions and the formation of their social experience. The article covers the adaptation process of preschool children, its psychological and pedagogical features, as well as the main tasks of the social pedagogue in this process. The interaction of the family, preschool educational organization and the social environment, as well as the importance of pedagogical cooperation, are substantiated. According to our research, it is intended to study the positive impact of socio-pedagogical activity on the development of communication skills, emotional stability, social activity and the ability to adapt to the team in children.

**Key words:** Social pedagogy, social environment, creativity, competence, interpersonal relationships, sociology, ethnography, anti-conformism, striving for originality, intuition, preschool education, adaptation, socialization, pedagogical activity, child development.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль социально-педагогической деятельности в системе дошкольного образования в формировании адаптивных навыков детей с научной, теоретической и практической точек зрения. Социально-педагогическая деятельность рассматривается как важный педагогический процесс, направленный на правильную организацию социальной среды, адаптацию детей к новым условиям и формирование их социального опыта. В статье рассматривается процесс адаптации детей дошкольного возраста, его психолого-педагогические особенности, а также основные задачи социального педагога в этом процессе. Обосновывается взаимодействие семьи, дошкольной образовательной организации и социальной среды, а также важность педагогического сотрудничества. По результатам исследования предполагается изучить положительное влияние социально-педагогической деятельности на развитие у детей коммуникативных навыков, эмоциональной устойчивости, социальной активности и способности к адаптации в коллективе. Социально-педагогическая деятельность рассматривается как важный педагогический процесс, направленный на правильную организацию социальной среды, адаптацию детей к новым условиям и формирование их социального опыта.

**Ключевые слова:** Социальная педагогика, социальная среда, креативность, компетентность, межличностные отношения, социология, этнография, антиконформизм, стремление к оригинальности, интуиция, дошкольное образование, адаптация, социализация, педагогическая деятельность, развитие ребенка.



## KIRISH

Ijtimoiy pedagogik faoliyat maktabgacha ta'lim-tarbiyada ijtimoiy muhitni to'g'ri tashkil etish yetakchi omil deb qaraladi, chunki u pedagog tomonidan to'plangan ijtimoiy tajribani yosh avlodga yetkazish uchun ta'sir ko'rsatishning maxsus tuzilgan tizimi hisoblanadi. Bolalarning olgan ta'lim-tarbiyasi ularning baxt-saodati yo'lida olib boriladigan bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotida, sotsial-iqtisodiy faoliyatida, kelajakda insonlar orasida o'z o'rnini topishida hamda berilgan vazifalarni hal etishda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika – jamiyatda insonlararo munosabatlar jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni o'rganadi. Uning asosiy vazifalaridan biri jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga (qariyalar, nogironlar, yolg'iz yashovchilar, iqtisodiy nochor oilalar) yordam berish va ularni qo'llab-quvvatlashdir. Ushbu fanlarning o'zaro aloqasi insonlarda mehnatsevarlik va vatanparvarlik, ijtimoiy faollik va mas'uliyat, insoniylik va mehribonlik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda oila, maktab va boshqa ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy pedagogikaning predmeti – shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonidir. Ya'ni, shaxsning shakllanish qonuniyatlari, unga ijtimoiy muhit va tarbiyaning ta'siri o'rganiladi. Jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar ushbu fanning rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy pedagogika ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi, chunki ularning har biri inson tabiatining turli qirralarini yoritib beradi. Jumladan, ijtimoiy psixologiya shaxslararo munosabatlar tabiatini o'rganadi, sotsiologiya insonning turmushi, guruh va jamiyatdagi o'rnini tahlil qiladi, tibbiyot va biologiya insonning kelib chiqishi, tana tuzilishi va fiziologik o'zgarishlarini o'rganadi, mantiq va falsafa insonning fikrlashi va anglash faoliyatini tadqiq etadi, tarix, etnografiya va huquq esa ijtimoiy tajriba hamda qonun-qoidalarini o'rgatadi <sup>[1]</sup>.

Bizga ma'lumki, har bir pedagogning faoliyati bevosita bolalar bilan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan bolalar birinchi kunidayoq oila muhitidan boshqa muhitga tushadi. Shu sababli pedagoglardan ilmiy salohiyat, psixologik bilim va tajribaga tayangan holda bolalarda moslashuv ko'nikmalarini ijobiy shakllantirish hamda ularni maktabgacha ta'lim muhitiga ko'niktirish talab etiladi.

MTTda ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka ishlash, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish, bolalarni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar va mehnatsevar barkamol inson qilib tarbiyalash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin <sup>[2]</sup>.

Shu bilan birga, tarbiyachidan kreativ bilim talab etiladi, chunki bolalar yangi narsalarga doim qiziqish bildiradi va ularning e'tiborini jalb qilish osonlashadi. Kreativlik lotincha "creatio" so'zidan olingan bo'lib, "yaratmoq" degan ma'noni bildiradi. Bu esa tarbiyachilardan ijodiy tafakkur (mantiqiy fikrlash, mustaqil evristik yondashuv, har tomonlama tahlil), emotsional qiziquvchanlik (yangilikka intilish, o'z faoliyatidan qoniqmaslik), originallikka intilish (ijodiy yondashuv), tiniq tasavvur (nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq eta olish), intuitsiya (ichki sezgi), emotsional barqarorlik (refleksiya, empatiya, ichki boshqaruv), ijobiy motivatsiya (faoliyat natijasidan ijobiy emotsiya olish), antikonformizm (andozaviy yondashuvlardan chetlashish) kabi sifatlarni talab etadi.

Kreativ yondashuv asosida tarbiyachi bolalarga didaktik o'yinlar orqali innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim berishi va uni amaliyotga tatbiq etishi kasbiy mahorat darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi <sup>[3]</sup>.

Tarbiyachilar bolalarni maktabgacha ta'limga moslashtirish jarayonida musiqa orqali inson qalbiga yo'l topish mumkinligini yaxshi biladilar. Musiqa bolalarning moslashuviga yordam beradi. O'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq o'yinlari, musiqasi, raqslari va amaliy san'atini o'rgatish bolalarning qiziqishini oshirib, ularning ijtimoiy muhitga tez moslashishiga yordam beradi. Bu esa bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash, harakatga oid gigiyenik malakalarni shakllantirish, tengdoshlariga o'z vaqtida yordam ko'rsata bilish kabi sifatlarni rivojlantiradi hamda bolaning shaxsiy madaniyati va ijtimoiy himoyalanganligini namoyon etadi.

Maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlari oddiy mashg'ulot emas. Ularni tashkil etishda davlat talabarlari hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan davlat o'quv dasturi asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mashg'ulotlar bolalarning musiqiy qobiliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Mashg'ulotlar davomida turli faoliyat turlari – kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash, musiqa savodi bilan tanishish – o'zaro uzviy bog'langan holda olib boriladi. Musiqa faoliyati bolalarning faolligini oshiradi va tashkil etiladigan bayramlarning qiziqarli hamda muvaffaqiyatli o'tishiga xizmat qiladi.

Musiqa mashg'ulotlari butun guruh bilan bir vaqtda o'tkaziladi va bolalarning yoshiga mos ravishda belgilangan vaqt davomida olib boriladi: kichik guruhlarda 15–20 daqiqa, o'rta guruhlarda 20–25 daqiqa, katta guruhlarda 25–30 daqiqa, tayyorlov guruhlarida esa 30–35 daqiqa.

Musiqa mashg'ulotlari orqali bolalarga musiqiy ta'lim-tarbiya berishning muayyan vazifalari bosqichma-bosqich hal etib boriladi. Har bir guruh uchun bilim va malakalarga qo'yiladigan talablar faoliyat turiga qarab belgilanadi. Bolalarga yoshiga mos she'rlar va qo'shiqlar yodlatiladi, shu orqali ular davlat ramzlari – gerb, bayroq va madhiyalar haqida ham ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Bolalar o'zlari qiziqqan mashg'ulotlar orqali ta'lim va tarbiya jarayonida faol ishtirok etadilar. Mashg'ulotlar davomida ularning ijtimoiy moslashuvi va ijtimoiy muhitga ko'nikishi yanada tezlashadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogning faoliyati bevosita ijtimoiy pedagogika, bolalar psixologiyasi, pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik kabi yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu adabiyotlarni tahlil qilganimizda shuni ko'rish mumkinki, bolalar psixologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan bolaning eng avvalo his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, o'zini tutishi, muloqoti, har bir faoliyatga bildirgan reaksiyasi, shuningdek, xotirasi, tafakkuri, idroki, sezgisi, hissiyoti, qobiliyati, xarakteri va temperamenti kabi jihatlarni o'rganadigan soha hisoblanadi.

Xususan, rus psixologi Aleksey Nikolaevich Leontyevning faoliyatning shaxs rivojlanishidagi hal qiluvchi o'rni haqidagi qarashlariga tayanilib, ijtimoiy-pedagogik faoliyat bolalarda ijtimoiy tajribani shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Uning fikricha, bola faoliyat jarayonida jamiyatda qabul qilingan me'yor va qadriyatlarini egallaydi, bu esa uning moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, mashhur psixolog Lev Semyonovich Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi tadqiqotning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida yuzaga keladi. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi asosida pedagogning yo'naltiruvchi roli hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyat orqali bolalarning moslashuv jarayoni tezlashishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Bundan tashqari, Daniil Borisovich Elkoninning o'yin faoliyatining yetakchi o'rin tutishi haqidagi qarashlariga tayanilib, ijtimoiy-pedagogik faoliyatda o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvida muhim vosita ekanligi asoslab beriladi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali bolalar ijtimoiy rollarni egallaydi, muloqotga kirishadi va jamoaga moslashadi.

Shuningdek, Sergey Leonidovich Rubinshteynning shaxs va faoliyat birligi haqidagi nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy-pedagogik faoliyat bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagogning kasbiy kompetensiyasi, kreativ yondashuvi va ijtimoiy muhitni to'g'ri tashkil etishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Xususan, o'zbek olimlari F.R. Qodirova, Sh.A. Abdullayeva, M. Xoliqovalarning ijtimoiy-pedagogik faoliyat, bolalarni ijtimoiylashtirish va ularning moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy ishlari ushbu tadqiqotning nazariy bazasini boyitadi. Ularning ilmiy qarashlarida pedagogning ijtimoiy faoliyati bolalarning moslashuv jarayonida asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqotning metodologik asosini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni hamda maktabgacha ta'limga oid davlat talablari tashkil etadi. Ushbu hujjatlarda bolalarning ijtimoiy moslashuvi, ijtimoiy faolligi va shaxs sifatida shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayonining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o'rni, mazmuni hamda psixologik-pedagogik xususiyatlarini o'rganishga oid ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqotda shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyatga asoslangan hamda ijtimoiy-pedagogik yondashuv asosiy metodologik tamoyillar sifatida qabul qilindi. Avvalo, faoliyat nazariyasi asoschilari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy pedagogika shaxsning jamiyatda moslashuvi, uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi hamda ijtimoiy muammolarni ta'lim-tarbiya orqali hal qilishni o'rganuvchi sohadir. Shu bilan birga, ijtimoiy pedagogika bolaning yashash muhitini to'g'ri tashkil etish va uni to'g'ri yo'lga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish ijtimoiy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va zararli odatlarning tarqalishiga qarshi kurashishni nazarda tutadi. Shuningdek, huquqiy himoya yo'nalishida bolalar va oilalarning manfaatlarini davlat hamda jamoat tashkilotlari oldida himoya qilish usullari o'rgatiladi.

Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik sohasi pedagoglarning egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, bolalarga yangi bilimlarni yetkazish hamda ularni komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan muhim yo'nalish hisoblanadi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalana olgan pedagog yuqori ilmiy salohiyatga ega metodist sifatida faoliyat yuritib, ta'lim sohasiga munosib hissa qo'shadi.

Pedagog faoliyatida bolalarda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'rganilgan pedagogika, psixologiya va ijtimoiy pedagogika fanlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanlar ijtimoiy muhit va uning bolalar shaxsining shakllanishiga ta'sirini chuqur o'rganishga yordam beradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy voqea va hodisalarning bolaning rivojiga ta'sirida oila muhiti, ya'ni mikro muhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy pedagogik faoliyat bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda kompleks, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda moslashuv (adaptatsiya) tushunchasi shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashuvi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi hamda ijtimoiy tajribani egallashi bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy pedagogik faoliyat bolaning ijtimoiylashuv jarayonini boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda ilmiy asoslangan, tizimli va samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'lib, ularning shaxs sifatida muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Pedagog bola va ota-onalar bilan samarali munosabat o'rnatish o'rnata olsa, jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklar sezilarli darajada kamayadi. Natijada bolalarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashuv ko'nikmalari to'g'ri shakllanadi va ularning yangi muhitga moslashuvi osonlashadi.

Kelajakda pedagog ana shu jarayon orqali komil, har tomonlama yetuk shaxslarni tarbiyalashda mustahkam poydevor yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim va zarur jarayon hisoblanadi. Bu faoliyat orqali bolalar yangi ijtimoiy muhitga kirishish, o'z o'rnini topish, tengdoshlari va kattalar bilan to'g'ri muloqot qilishni o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola ilk bor jamoaga qo'shiladi va aynan shu davrda uning ijtimoiy tajribasi shakllana boshlaydi. Shu sababli pedagog va tarbiyachilarning to'g'ri yondashuvi bolalarning moslashuv jarayonini yengillashtiradi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayonida turli o'yinlar, suhbatlar, rolli mashg'ulotlar, jamoaviy faoliyatlar hamda musiqaviy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Bu orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash, o'zaro hamkorlik qilish, muammoli vaziyatlardan chiqish kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Shu bilan birga, ular aqliy va jismoniy jihatdan ham rivojlanadilar.

Shuningdek, bolalar ijtimoiy qoidalarga amal qilish, tartib-intizomni saqlash, navbat kutish, o'zini boshqarish kabi muhim odatlarni ham o'zlashtiradilar.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ijtimoiy-pedagogik faoliyat bolalarda nafaqat ijtimoiy, balki psixologik va xulqiy moslashuvni ham rivojlantiradi. Bu esa ularning keyingi bosqich – maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga hamda mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha ta'limda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish har bir pedagogning muhim vazifalaridan biridir.

Mazkur yo'nalishda olib borilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tizimli tashkil etish va uning metodik bazasini takomillash-tirish zarur. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarning moslashuv ko'nikmalarini erta bosqichda aniqlash maqsadida diagnostik vositalarni amaliyotga keng joriy etish lozim. Bu esa ehtimoliy muammolarni oldindan bartaraf etish imkonini beradi.

Oila, maktab va ijtimoiy muhit o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi, chunki bolalarning ijtimoiy moslashuvi ko'p jihatdan ushbu institutlarning o'zaro uyg'un faoliyatiga bog'liq.

Ijtimoiy pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, ularni muntazam ravishda malaka oshirish kurslari hamda ilmiy-amaliy seminarlar orqali qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bolalarda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening dasturlari, psixologik mashg'ulotlar va ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulova I.-M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: "Makon Savdo Print" XK, 2024. – B. 5–75.
2. Tosheyeva M., Toshtemir o. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. – Buxoro: "Kamolot" nashriyoti, 2022. – B. 5–59.
3. Nurmatov Z.N. Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik. – Toshkent: "O'zkitobsavdonashriyoti" NMIU, 2026. – B. 22–59.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009.
5. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi majmuasi // Ta'lim va ijtimoiy himoya materiallari. – 2024.
6. Xodjayev B.X., Xo'jamatova X.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy ta'lim. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2023.
7. Babayeva D.R., Xalilova D.F., Salimova D.F. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. – Toshkent: "Ilim ziyo zakovat", 2023.
8. Babayeva D.R., Najmiddinova G.O. Дошкольная педагогика. – Toshkent: "Ilim ziyo zakovat", 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.